

TEXNIK TARAQQIYOT

Yo'ldosheva Ruxshona O'tkirkbek qizi

Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti

Xorijiy til va adabiyot yo'naliishi 3-kurs 4-23- guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17124716>

Texnik taraqqiyot Texnik taraqqiyot insoniyat taraqqiyoti tarixining ajralmas va bosh omillaridan biridir. Dastlabki mehnat quollaridan tortib, hozirgi sun'iy intellekt asosidagi tizimlarga bo'lgan jarayon uzoq, murakkab, ammo nihoyatda samarali yo'lni bosib o'tdi.

Bugungi kunda texnika taraqqiyoti nafaqat ishlab chiqarish yoki sanoat sohasini, balki ta'lim, tibbiyot, transport, aloqa, hatto shaxsiy hayotimizni ham tubdan o'zgartirib yubordi.

Tarixiy manbalarga qaraganda, texnik taraqqiyot qadimgi davrlardan boshlangan. Dastlab odamlar toshdan qurol yasashni o'rgangan, keyinchalik mis va temir davrlarida yangi asbob-uskunalar paydo bo'lgan.

Sanoat inqilobi (XVIII-XIX asrlar) esa texnik taraqqiyotda chinakam burilish yasadi.

Bug' dvigateli, tikuv mashinalari, bosma mashinalar, temir yo'l va elektr energiyasining joriy etilishi jamiyat hayotini butunlay o'zgartirdi.

XX va XXI asr texnikaning yuksalish davri bo'ldi. Kompyuterlar, internet, mobil telefonlar, sun'iy yo'ldoshlar va avtomatlashtirilgan tizimlar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

Bugungi texnik taraqqiyot – imkoniyatlar va xavf-xatarlar Bugungi texnika taraqqiyoti hayratlanarli darajada. Dunyoda 5G texnologiyasi orqali bir necha soniyada katta hajmdagi ma'lumotlarni uzatish mumkin. Tibbiyotda robot-jarrohlar eng murakkab operatsiyalarni amalga oshirmoqda. Qishloq xo'jaligida esa dronlar, sensorlar va aqlli texnikalar yordamida hosildorlik ortmoqda.

Ammo, bu taraqqiyot bilan bir qatorda, ayrim xavflar ham yuzaga chiqmoqda. Sun'iy intellektning haddan tashqari rivojlanishi, inson o'rnnini texnika egallashi, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi kabi muammolar bugungi kunda jiddiy muhokama qilinmoqda. Ayniqsa, texnika imkoniyatlaridan noto'g'ri foydalanish, uni qurol sifatida ishlatish ehtimoli butun insoniyatga tahdid soladi.

Mening fikrimcha, texnik taraqqiyotning o'zi ijobjiy yoki salbiy hodisa emas.

U vosita — uni qanday ishlatish esa insonlarning ongiga va axloqiy mezonlariga bog'liq.

Agar biz texnikani inson hayotini yengillashtirish, atrof-muhitni asrash va ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'lida ishlatsak, bu taraqqiyot haqiqiy yutuqqa aylanadi.

Ammo faqat foyda ortidan quvish, raqobat va nazoratsizlik texnik yutuqlarni xavfga aylantirishi mumkin. Shuning uchun texnik taraqqiyotga ongli va mas'uliyatli yondashish, yosh avlodga texnologik savodxonlikni o'rgatish, milliy va insoniy qadriyatlarga suyanib qarorlar qabul qilish zarur.

Texnik taraqqiyot – bu zamon talabi. U to'xtamaydi, doim oldinga qarab harakatda bo'ladi. Biz undan qochib qutula olmaymiz, lekin uni boshqara olishimiz mumkin. Buning uchun bizga zamonaviy bilim, axloqiy mezonlar va global mas'uliyat zarur.

Texnika insonni emas, inson texnikani boshqaradigan dunyo barpo etish – bu bizning eng muhim vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, T.: Ma’naviyat, 2008.
2. To‘xtayev S. “Texnika tarixi”, T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2015.
3. Dasturiy va texnologik yangiliklar portali: <https://www.technologyreview.com>